

RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Ziyoyeva Mavluda Ergashevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o'qituvchisi
Email: ziyayevamavluda@dtpi.uz

ANNOTATSIYA

Tadqiqotda rivojlangan davlatlar tajribasida inklyuziv ta'limni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va maxsus ehtiyojli bolalarga sifatli ta'lim berish mexanizmlari o'rganildi. Finlyandiya, Yaponiya, Kanada tajribasidan kelib chiqib, o'qituvchi kompetensiyasi, differensial yondashuv va moslashtirilgan o'quv muhitining samaradorligi tahlil qilindi. O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribani joriy etish inklyuziv muhitni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, xalqaro tajriba, maxsus ehtiyojli bolalar, ta'lim sifati, pedagogik yondashuv, differensial ta'lim, innovatsiya.

АННОТАЦИЯ

В исследовании изучены основные направления организации инклюзивного образования и механизмы обеспечения качественного образования детей с особыми потребностями в опыте развитых стран. На примере Финляндии, Японии и Канады проанализирована эффективность применения компетентности педагогов, дифференцированного подхода и адаптированной среды обучения. Внедрение международного опыта в систему образования Узбекистана способствует развитию инклюзивной среды и повышению качества образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, международный опыт, дети с особыми потребностями, качество образования, педагогический подход, дифференцированное обучение, инновации.

ABSTRACT

The study studied the main directions of organizing inclusive education and mechanisms for providing quality education to children with special needs in the experience of developed countries. Based on the experience of Finland, Japan, and Canada, the effectiveness of teacher competence, differentiated approach, and adapted learning environment was analyzed. The introduction of international experience in the education system of Uzbekistan serves to develop an inclusive environment and improve the quality of education.

Key words: *Inclusive education, international experience, children with special needs, quality of education, pedagogical approach, differentiated education, innovation.*

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, insonparvarlik va davlat siyosati darajasidagi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki har bir bola, jismoniy yoki ruhiy imkoniyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni to'g'ri tashkil etish nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi, balki butun ta'lim tizimining sifatini oshiradi.

O'zbekiston ham ushbu sohada xalqaro tajriba va hamkorlikka tayangan holda, ta'lim muassasalarida inklyuziv muhitni shakllantirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, u inklyuziv ta'limni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini aniqlash, xalqaro tajriba asosida milliy modelni takomillashtirish va jamoatchilikda bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy-adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalish dunyo miqyosida jadal rivojlanib bormoqda. UNESCO, UNICEF, va

BMTning “Ta’lim hamma uchun” tashabbuslari doirasida chop etilgan hisobotlarda inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari — **tenglik, adolat, moslashtirilgan o’quv muhiti va o’qituvchi kompetensiyasi** alohida ta’kidlanadi. Xorijiy olimlardan Mel Ainskou, Toni But, Alan Daysonning “Maktablarni takomillashtirish, inklyuziani rivojlantirish” nomli asarida o’z tadqiqotlarida inklyuziv ta’limni maktab madaniyatini o’zgartiruvchi ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilganlar. Lani Florian va Kristina Black-Hawkinsning “Inklyuziv pedagogikani tadqiq etish” nomli asarida esa o’qituvchilarning shaxsga yo’naltirilgan yondashuvi va o’quvchilarning farqli ehtiyojlarini hisobga olishni ta’lim sifatining asosi deb biladi.

O’zbekistonlik tadqiqotchilar — **Sh. Mirziyoyeva, D. Jo’rayeva, Z. Mamatqulovalarning** ishlarida esa inklyuziv ta’lim milliy tizimda joriy etilishining huquqiy asoslari, davlat dasturlari va pedagogik innovatsiyalar yoritilgan. Ayniqsa, “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” bu borada muhim metodologik manba hisoblanadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili inklyuziv ta’limning rivojlanishi xalqaro tajriba, davlat siyosati va pedagogik yondashuvlar uyg’unligiga tayanishini ko’rsatadi. Ushbu tadqiqotda inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribani o’rganish va tahlil etish maqsadida ilmiy-tahliliy yondashuv asosida bir qator metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida **taqqoslash (qiyosiy tahlil), tizimli tahlil, ilmiy umumlashtirish, hamda hujjatlarni tahlil qilish** usullari tanlandi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida Finlyandiya, Yaponiya, Kanada va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta’limni tashkil etish tajribasi o’rganildi. Tizimli tahlil metodi orqali ushbu tajribaning pedagogik, tashkiliy va huquqiy asoslari aniqlanib, O’zbekiston ta’lim tizimiga mos jihatlar ajratib ko’rsatildi. Shuningdek, **empirik ma’lumotlarni tahlil qilish** orqali xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF, OECD) hisobotlari hamda milliy qonun hujjatlarida aks etgan ma’lumotlar o’rganildi. Olingan natijalar asosida inklyuziv ta’limda sifatni ta’minlashga oid samarali model va yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi **insonparvarlik, teng imkoniyat va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** tamoyillariga tayangan bo'lib, u O'zbekiston sharoitida xalqaro tajriba asosida samarali inklyuziv muhit yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan davlatlar tajribasida inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir necha muhim omillar ajralib chiqdi. Avvalo, ta'lim siyosati darajasida inklyuzivlikni milliy qadriyat sifatida tan olish hamda har bir bolaning individual ehtiyojini inobatga olgan o'quv tizimini shakllantirish zarur. Finlyandiya va Kanada tajribasida har bir o'quvchi uchun alohida ta'lim rejasining mavjudligi o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Ikkinchi natija — o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi. Rivojlangan davlatlarda pedagoglar inkluziv muhitda ishlash uchun psixologik, metodik va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishi shart. Bu holat o'quvchi ehtiyojiga mos yondashuvni ta'minlaydi.

Uchinchi jihat — ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moslashtirish. Inklyuziv ta'lim samaradorligi infratuzilma, texnologik vositalar va o'quv resurslarining mavjudligiga bevosita bog'liq.

To'rtinchidan, jamiyatda bag'rikenglik va hamjihatlik madaniyatini shakllantirish inklyuziv ta'limni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy omilidir. Bunday muhitni yaratish orqali nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha o'quvchilar o'zaro hurmat va hamkorlikda rivojlanadi. Tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribaga asoslangan inklyuziv o'qituvchi tayyorlash modellarini joriy etish;
- Har bir maktabda moslashtirilgan o'quv rejalari va baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- Inklyuziv ta'limni targ'ib etuvchi jamoatchilik dasturlari va axborot kampaniyalarini yo'lga qo'yish;
- Pedagoglar uchun xalqaro onlayn malaka oshirish platformalarini tashkil etish.

Ushbu tavsiyalar xalqaro tajriba asosida inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, maxsus ehtiyojli bolalarning to'laqonli ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va ta'lim tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar tajribasi inklyuziv ta'limni tashkil etishda kompleks yondashuv zarurligini namoyon etadi. Xalqaro amaliyotda o'qituvchi tayyorgarligi, individual o'quv dasturlari va moslashtirilgan muhit ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardir. O'zbekiston uchun ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish, har bir bolaga teng imkoniyat yaratish va insonparvar jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 23.09.2020-y, O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4860-son Qarori.
3. "O'zbekiston Respublikasida 2021-2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tasdiqlangan, 2021-yil.
4. Ainscow, M., Booth, T. *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. — Bristol: CSIE, 2019.
5. Hasanboeva, O., Yo'ldosheva, D. *Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.
6. Jalolova, S. *Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari*. — Toshkent: "O'zbekiston milliy nashriyoti", 2021.
7. UNESCO. *Inclusive Education: Guidelines for Policy and Practice*. — Paris, 2020.